



MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK –O'ZBEK XALQINING YUKSAK QADRIYATIDIR

Berdimurodov Muhridin Rashid o'g'li

Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti
1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6168230>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-Fevral 2022
Ma'qullandi: 10 - Fevral 2022
Chop etildi: 16 - Fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

Konstitutsiya, O'rta Osiyo, Movarounnahr, O'zbekiston musulmonlari idorasi, Rus pravoslav cherkovi, Toshkent va O'rta Osiyo yeparxiyasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola mazmuni shundan iboratki yurtimizda millatlararo tutuvlik va diniy bag'rikenglikni xalqimiz va davlatimiz rahbarlari tomonidan ya'ni sobiq prezidentimiz I.Karimov va Hozirgi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevlarni yurtimizda boshqa millat fuqarolariga ko'rsatgan g'amxo'rliklari va ularga yaratib kelinayotgan shart-sharoitlar, va yana shuni aytib o'tishim joizki O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham ularning haq huquqlari mustahkamlab quyilgani haqida ma'lumot berib o'tilgan.

Malumki O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston hududi qadim asrlardan turli madaniyat, til, urf-odat, turmush tarziga ega bo'lgan, xilma-xil dinlarga e'tiqod qiluvchi, bir-biriga o'xshash bo'lmagan bir necha xalqlar yashagan o'lkadir. O'zbekistonning joqrofiy nuqtai nazaridan muhim savdo yo'llari chorrahasida joylashgani, ko'plab davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar qilgani turli xalqlarning diniy va manaviy hayotiga, shuningdek, Movarounnahrdagi urf-odatlar ham o'zga yurtlar madaniyati rivojiga salmoqli tasir ko'rsatgan. Bu esa o'ziga xos millatlararo ham jihatlik va diniy bag'rikenglikni shakllantirishdagi asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qilgan. Hozirgi kunga kelib, respublikamizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Turli millat va elat vakillari uchun esa bir qancha milliy-madaniyat markazlari faoliyat

yurgazib kelmoqda. Jumladan, Toshkent viloyatida Angren shahar rus milliy-madaniyat markazi, Olmaliq shahar ukrain milliy-madaniyat markazi, Oqqo'rg'on tumani koreys milliy-madaniyat markazi, Viloyat qozoq milliy-madaniyat markazi, Yangiyo'l shahar tatar milliy-madaniyat markazi kabilardir.

O'zbekistonda barcha diniy tashkilotlarga qonun doirasida teng sharoit yaratib berilgan. Ularning qonunga mos istaklari ro'yobga chiqarilmoqda. Bundan tashqari, O'zbekistonda bugungi kunda musulmonlar uchun 2000 dan ziyod masjid va 10 ta o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Toshkent viloyati hududida esa 200 ortiq masjid rasmiy ro'yxatdan o'tgan. Ilmiy manbalar O'zbekiston — ilk diniy qarash va tasavvurlar yuzaga kelgan eng



qadimiy o'lkalardan biri ekanidan dalolat beradi. O'lkamizda qadim zamonlardan oq zardushtiylk, budizm, yahudiylik, nasroniylk kabi murakkab ideologik tizimga ega bolgan dinlar tinch-totuv faoliyat olib borganlar. Ayni shu zaminda ko'p asrlar mobaynida jahon madaniyatlari dunyo miqyosida bir-birini boyitgan. Bu yerda ko'chmanchi xalqlar o'troq xalqlar bilan, eronlik qabilalar bilan, musulmonlar, nasroniylar va yahudiylar bilan ko'p asrlar birga yashab kelganlar.

Iftixor bilan aytishimiz mumkinki, jamiyat hayotining barcha jabhasida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar o'z samarasini berayapti. Binobarin, istiqlol yillarida Vatanimizda yashayotgan turli millatlar o'rtasida o'zaro hurmat, tenghuquqlilik hamda hamjihatlikni mustahkamlash, uning qonuniy asoslarini yaratishga alohida e'tibor qaratildi. Ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni saqlash, dinlararo va millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish hisobiga xalqaro maydonda O'zbekistonning obro'si oshib bormoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar markazida, avvalo, inson manfaati, uning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadi turadi. Fuqarolar manfaatlarini faqatgina tinchlik va osoyishtalik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini yaratish orqali ta'minlash mumkin. Bugun dunyo koronavirus pandemiyasi bilan bog'liq inqirozga duch kelgan bir sharoitda ko'plab mintaqalarda millatlararo va konfessiyalararo ziddiyatlar kuchayayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Shu bois, boshlangan islohotlarni izchil davom ettirish uchun birdamlikni saqlash muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda aholining ko'p millatli bo'lishiga ijtimoiy-

iqtisodiy rivojlanishning qulay omili sifatida qaralmoqda. Ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni saqlash, dinlararo va millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish hisobiga xalqaro maydonda O'zbekistonning obro'si oshib bormoqda.

Xususan, mamlakatimizdagi davlat ta'lim muassasalarida o'qitish etti tilda olib boriladi. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi o'z ko'rsatuvlarini o'n ikki tilda namoyish etmoqda, o'ndan ortiq tilda gazeta va jurnallar nashr etilmoqda. Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi qoshida 138 ta milliy madaniy markaz, bundan tashqari, 16 ta konfessiyaga tegishli 2300 ga yaqin diniy tashkilot faoliyat yuritadi. Bu borada yaxlit, chuqur o'ylangan siyosat va uni amalga oshirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar hayotga tatbiq etilib, millatlararo va dinlararo totuvlikni qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratilmoqda. Bu islohot va o'zgarishlarning negizida konstitutsion huquq va kafolatlar yotganini alohida qayd etish lozim. Shundan kelib chiqib, bu borada quyidagi dalillarni keltirib o'tish zarur:

Birinchidan, turli millat va din vakillarining o'z salohiyatini to'laonli amalga oshirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun konstitutsiyaviy kafolatlar belgilangan. Bunda, eng avvalo, fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, teng huquq va erkinliklarini, ularning qonun oldida tengligini ta'minlash alohida e'tiborga olingan. Mazkur sohada O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy tamoyillari sirasiga fuqarolarning teng huquqliligi, ijtimoiy



adolat, qonun ustuvorligi, millat va elatlarning madaniy, til va diniy qadriyatlari, an'ana va urf-odatlarini o'zaro hurmat qilish kiradi.

Konstitutsiyaviy kafolatlar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, fuqarolarga jamoat va davlat qurilishida ishtirok etishni ta'minlaydi. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni o'rnatish siyosati Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa xalqaro huquqiy-me'yoriy hujjatlarga to'la mos keladi.

Ikkinchidan, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash O'zbekistonning zamonaviy davlat sifatida rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Mamlakatimizda 2017-2021 yillarda -O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, mazkur sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi to'rt yilda millatlararo munosabatlar va din sohasida 50 dan ortiq qonun hujjatlari va 40 ga yaqin qarorlar qabul qilindi. Bu huquqiy hujjatlarning aksariyati fuqarolarning dini va millatidan qat'i nazar, huquq va erkinliklarini kengaytirish, shu jumladan, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish imkoniyatini oshirishga qaratilgan.

Masalan, diniy tashkilot faoliyatini tugatish to'g'risida qaror qabul qilish vakolatlari ijro hokimiyati — adliya organlaridan sudlarga o'tkazilib, ularning faoliyati erkinligining huquqiy kafolatlari mustahkamlandi. Diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish uchun davlat boji

miqdori besh baravarga kamaytirildi, hisobotlarni taqdim etish davriyligi qisqartirildi. Bundan buyon diniy tashkilotlar faqat yilda bir marta hisobot taqdim etadi. Shuningdek, 2019 yilda millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati kontseptsiyasi tasdiqlandi. Shu bilan birga, diniy-ma'rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo'yicha bir qancha qarorlar qabul qilinib, unga ko'ra, mazkur sohada yagona davlat siyosatini amalga oshirish, fuqarolarning vijdon erkinligi kafolatlarini himoya qilish, turli millat va elatlar vakillari o'rtasida konstruktiv va o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirish bo'yicha yangi tizim joriy etildi. Xususan, Vazirlar Mahkamasi huzurida millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etildi, Din ishlari bo'yicha qo'mita faoliyati takomillashtirildi.

Uchinchidan, Harakatlar strategiyasi doirasida mamlakatimizda millatlararo va konfessiyalararo muloqotni rivojlantirish borasida institutsional yondashuv yo'lga qo'yildi.

Jumladan, Prezidentimizning 2018 yil 16 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, Din ishlari bo'yicha qo'mita huzuridagi Konfessiya ishlari bo'yicha kengashning yangi tarkibi tasdiqlandi. Kengash tarkibi 9 nafardan 17 nafar a'zoga — O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar vakillari hisobiga kengaydi. e'tiborli jihati, kengash a'zolariga a'zolari oz sonli diniy tashkilotlarning rahbarlari ham kiritildi.



Jamoatchilik maslahatlashuv organi hisoblangan mazkur kengashning asosiy maqsadi O'zbekistondagi mavjud diniy-ijtimoiy jarayonlarni muhokama qilish hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining asosiy vazifalari qatoriga davlat organlarining respublika hududida joylashgan milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlari bilan o'zaro aloqasi va hamkorligini ta'minlash va yanada rivojlantirish kiritildi. Qo'mita qoshida fuqarolarning etnomadaniy talablarini o'rganish, aniqlash va qanoatlantirishga, millatlararo munosabatlarni mustahkamlashga, milliy sabablarga ko'ra, ehtimoliy mojarolarning oldini olishga ko'maklashuvchi Jamoatchilik kengashi tuzildi. Bundan kutilayotgan asosiy natija — mazkur sohada davlat siyosatini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishdir.

O'zbekistonda yangi demokratik fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishga kirishilgan hozirgi o'tish davrida diniy bag'rikenglik qanchalik muhim bo'lsa, diniy bag'rikenglik uchun milliy mafkura ham shunchalik muhimdir. Milliy mafkuraning yuksak g'oyalari, o'z navbatida, dinning haqiqiy mohiyatini jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini anglab olishga yordam beradi. Diniy bag'rikenglik g'oyasini to'g'ri tushunishga yordam berib, barcha kishilarni e'tiqodidan qat'iy nazar birlashtiradi. Milliy istiqlol mafkurasi kishilar ongi va qalbiga singganda diniy mutaasiblikka, ayirmachilikka hyech qanday o'rin qolmaydi.

Respublikamiz aholisining milliy qiyofasi faqat Sharq emas, balki, Garb sivilizasiyasiga mos umuminsoniy tamoyillar, islom, xristianlik va boshqa dinlarga e'tiqod, an'ana va urfodatlar, rangbarang turmush tarzidan iborat ma'naviy mezonlarni o'zida aks ettiradi. Bunda yurtimizda yashayotgan xalqlarning o'tmishi, bugungi hayoti, kelajak bilan bogaiq orzu umidlari asrlar osha yonmayon yashash jarayonida shakllangan hamjihatlik barrikenglik qardoshlik tuyg'ulari uyg'unlashgan tarzda namoyon bo'ladi.

Hozirgi kunga kelib respublikamiz bo'yicha jami 2104 ta diniy tashkilot, shu jumladan, O'zbekiston musulmonlari idorasi, Rus pravoslav cherkovi, Toshkent va O'rta Osiyo yeparxiyasi, Yevangel xristian baptistlar cherkovlari Ittifoqi, Rimkatolik cherkovi, To'liq injil xristianlar markazi, O'zbekiston bibliya jamiyati, 1906 ta masjid, 163 ta xristian cherkovi, 7 ta yaxudiylar jamoasi, 7 ta bahoiylar jamoasi, 2 ta Krishnani anglash jamiyati va 13 ta diniy o'quv yurti (1 ta Islom masjidi, 10 madrasa va 1 ta pravoslav va 1 ta to'liq injil xristianlari seminariyasi) davlat ro'yxatidan o'tgan.

O'zbekistonda dunyoviylik bilan diniylik o'rtasida andoza sifatida qo'llash mumkin bo'lgan yangi nisbatning shakllanishi natijasida dinlararo bag'rikenglik va millatlararo totuvlikning ta'minlangani, qolaversa, tabarruk zaMinimizning azaldan umumjahon tamadduni markazlaridan biri bo'lgani barchaga ayon.

Bugun O'zbekiston diniy bag'rikenglik (tolerantlik) va doshlararo murosa borasida



faqat MDX davlatlariga emas, balki butun dunyoga namuna bo'lmoqda. Bu haqda Moskva va Butunrus Patriarxi Aleksey II, AQSh senatori Xillari Klinton xonim, AQShning sobiq davlat kotibi Madlen Olbrayt va Iordaniya qirolligi shahzodasi Hasan ben Talol yurtimizga ziyoratlari vaqtida ta'kidlab o'tganlar. Albatta, xalqimizga azaldan xos bo'lgan bu xislat o'zining uzoq tarixiga ega.

Tariximizning har qaysi davrida din doimo odamlarda yaxshi xislatlarni ko'paytirib, yomonlaridan xalos bo'lishga chorlagan, Yuksak umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan. Bugungi kunda ma'naviy va diniy jabhalarda kechayotgan murakkab jarayonda barcha millat va din vakillari birbirlariga nisbatan hamjihatlik barrikenglik va o'zaro hurmat tamoyillariga amal qilishlari doimiy barqarorlikning muhim omillaridan biridir.

Prezidentimiz I.A.Karimovning "Mustaqillik niholi ko'karishi uchun unga tinchlik osoyishtalik totuvlik millatlararo chidam va bardosh kabi kuchli ildizlar kerak. Shunda u har qanday shamol, dovul, bo'ronlarda egilmaydigan bo'lib ulg'ayadi", degan so'zlari hayotga izchillik bilan tadbiq etilmoqda. Ilgari surilgan mazkur g'oyani amalga oshirishda bugungi kunda ikki muxim masala, bir tomondan, tinchlik va ezgulik dini islomni "soxta islomchi"lardan, ya'ni ma'rifiy islomni siyosiylashgan jangari islomdan himoya qshgash, ikkinchi tomondan, ko'p millatli, ko'p dinli jamiyatimizda e'tiqod erkinligi kafolatlangan sharoitda ayrim jamoalarning missionerlik ruhida faoliyat yuritishlarining oldini olish muhim. Bu, o'z navbatida,

yurtimizdagi millatlararo hamjihatlik va diniy bag'rikenglikni yanada mustahkamlaydi.

So'nggi yillarda butun dunyo, shu jumladan, mintaqamizda kuchayib borayotgan diniy aqidaparastlik va jangarilik islomning asl mohiyati bo'lgan bag'rikenglikka zid bo'lgaya harakatlarga sabab bo'lmoqda. Bu harakat va garazli oqimlarning nomlari va shiorlari turlicha bo'lishiga qaramay, maqsadlari bir — dindand niqob sifatida foydalanib, davlat siyosatiga aralashish, hokimiyatni qo'lga kiritish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sagasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kitobida dinning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqida, jumladan, shunday deydi: "Biz din bundan buyon ham aholini oliy ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilish tarafdorimiz. Lekin biz hyech qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo'lishiga yo'l qo'ymaymiz. Chunki bu holni davlatimizning xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavfxatar deb hisoblaymiz".

Xozirgi zamonda milliy va diniy bag'rikenglik dunyoda tinchlik va barqarorlikni asrash hamda diniy ekstremizm, fundamentalizm va aqidaparastlikka qarshi kurashni, butun jahon hamjamiyatining hamkorligini nazarda tutadi. Shu tamoyilga asoslangan O'zbekiston turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrabavaylash, barcha fuqarolar o'z e'tiqodini amalga oshirishi



uchun zarur sharoitlarni yaratib berish, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlash, ular o'rtasidagi qadimiy mushtarak an'alarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Diniy bag'rikenglik ham dinlararo hamda har bir dinning ichidagi turli xil yo'nalishlar va mazhablarning ezgu g'oyalarini qadrlash, birbirlarini hurmat qilish asosida amalga oshadi. Bu milliy g'oya amal qiladigan ustuvor g'oyalar sifatida Milliy bag'rikenglik va dinlararo bag'rikenglikka asoslanib turli xalqlar va millatlar o'rtasida o'zaro hamjihatlik totuvlikni ta'minlash orqali erkin va farovon Hayot qurishga, insonlarning tub hayotiy maqsadlari bilan mushtarakdir.

Dastlabki milliy madaniyat markazlari koreyslar, Qozoqlar, yaxudiylar, armanlar tomonidan Respublika viloyatlarida 1989 yilda tuzildi. O'sha paytda ularning faoliyatini muvofiqlashtirib turish maqsadida O'zbekiston Hukumatining qaroriga binoan Madaniyat ishlari vazirligi huzurida Respublika millatlararo madaniyat markazi tashkil etildi. Ammo bu markazlarning chinakam rivojlanish va ravnaq topishi 1991 yildan mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin botlandi. 1992 yilning yanvarida Prezident I.A.Karimovning tashabbusi bilan Respublika millatlararo Baynalmilal markazi qoshidagi Madaniyat ishlari vazirligi Respublika baynalmilal madaniyat markaziga aylantirildi. Shu tariqa uning faoliyati negizida millatlar va elatlarni jipslashtirishga asosiy e'tibor qaratildi.

RBMM to'g'risidagi nizomda uning mustaqil muassasa ekanligi byolgilab qo'yilgan. Markaz milliy madaniy markazlarning faoliyatiga raxbarlik qiladi. O'zbekistonda yashovchi milliy

guruhlarining madaniy ehtiyojlarini qondirishda davlat idoralariga va jamoat tashkilotlariga ko'maklashadi.

Respublika Baynalmilal Madaniyat Markazining moddiy texnikaviy baza bilan ta'minlanishi RBMM va MMM ishlarini faollashtirdi, ularning birlashuvi va samarali hamkorlik qilishi uchun keng istiqbollar ochdi. Mamlakatimiz hududida yashayotgan millatlar urf-odati hamda islom dinining madaniy va sivilizatsion merosi, ma'naviy-falsafiy ahamiyatini chuqur o'rganish bo'yicha ishlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad — fundamental ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida diniy bag'rikenglik, millatlararo munosabatlarning tarixiy ildizlarini chuqur o'rganish va uni bugungi kun sharoitida rivojlantirishdan iborat. Bu borada Islom tsivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy nomidagi xalqaro tadqiqot markazlari tashkil etildi. Shu bilan birga, tegishli oliy ta'lim muassasalarida sifatli diniy ta'lim olish imkoniyati kengaymoqda. O'rta, oliy diniy ta'lim, magistratura, boshlang'ich doktorantura va doktoranturani o'z ichiga olgan diniy ta'limning besh bosqichli tizimi shakllantirildi. Islomiy ta'lim muassasalariga talabalarni qabul qilish kvotasi ikki baravar oshirildi. Shuningdek, Toshkent pravoslav seminariyasi va Toshkent xristian seminariyasi o'quv dargohlari ham o'z faoliyatini davom ettirmoqda.

To'rtinchidan, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida muhim o'rin egallay boshladi. Hukumat



xalqaro tashkilotlar hamda ushbu sohadagi mutaxassislar bilan konstruktiv muloqot va hamkorlik o'rnatishga alohida e'tibor qaratmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari Zeyd Raad Al-Huseyn hamda Evropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Milliy ozchiliklar bo'yicha Oliy komissari Lamberto Zanierning mamlakatimizga tashrifi chog'ida mazkur sohada olib borilayotgan islohotlar muhokama qilindi va xalqaro mutaxassislar tomonidan bu boradagi o'zgarishlarga yuqori baho berildi. E'tiborli jihati, 2017 yilda mustaqil -O'zbekiston tarixida ilk bora mamlakatimizga BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining din va e'tiqod erkinligi bo'yicha maxsus ma'ruzachisi Ahmad Shahid tashrif buyurdi. Uning tavsiyalari asosida 2018 yil 4 may kuni -O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi din va e'tiqod erkinligini ta'minlash bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

Umuman olganda, xalqaro hamjamiyat mamlakatimizning millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash borasidagi faoliyatini yuqori baholamoqda va -O'zbekiston tajribasiga katta qiziqish bilan qaramoqda. Xususan, O'zbekiston -Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017 yil 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklif etilishi va ushbu hujjatning 2018 yil 12 dekabrda qabul qilinishi bunga yaqqol misol bo'la

oladi.

Mazkur sohada olib borilgan islohotlar doirasida erishilgan muhim natijalardan biri sifatida 2018 yilda AQSh Davlat departamenti O'zbekistonni diniy erkinlik borasida "alohida tashvish uyg'otuvchi mamlakatlar" ro'yxatidan chiqarganini ko'rsatish mumkin. E'tiborli jihati, 2020 yil 13 oktyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi sessiyasida bo'lib o'tgan saylovlarda O'zbekiston milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha kengashi a'zoliciga uch yil muddatga — 2021-2023 yillarga saylandi. Mamlakatimiz uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo 193 davlatdan 169 tasi ovoz berdi. Bu saylovda eng ko'p ovoz berilgan davlat O'zbekiston bo'ldi. Bu ham yurtimizda millati va dinidan qat'i nazar, inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan, shu jumladan, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida olib borilayotgan siyosatning e'tirofi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Bularning barchasi O'zbekistonning xalqaro munosabatlarda ishonchli va mas'uliyatli sub'ekt sifatidagi roli mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida ijobiy va o'zaro hurmatga asoslangan muhitni mustahkamlash borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida millatlararo va dinlararo munosabatlarning yangi modeli yaratildi. Ushbu model turli millat va din vakillari o'rtasidagi millatlararo va dinlararo muloqot, konstruktiv yondashuv va barcha fuqarolarning qonun oldida



tengligiga asoslanadi. Shu ma'noda, so'nggi yillarda O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va din sohasida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar mamlakatda ushbu sohalarda yangicha yondashuv va strategik maqsadni birlashtirgan tizim shakllanishiga xizmat qildi. Mazkur tizimning muvaffaqiyati esa yurtimizda tinchlikni saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, barqaror rivojlanish uchun zamin yaratmoqda. Zero, zamonaviy davlatning bosh maqsadi

jamiyatda hamjihatlik va barqarorlik, inson huquq va erkinliklarining samarali himoya qilinishini ta'minlashdan iborat.

Bu borada Asosiy qonunimiz — Konstitutsiya nafaqat jamiyat va davlat taraqqiyotini belgilovchi oliy darajadagi siyosiy-huquqiy hujjat, balki mamlakatimizda yashovchi har bir fuqaroning munosib turmush tarzini kafolatlovchi muhim asosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Toshkent-2012;
2. Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi, 1995;
3. Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi, 1948;
4. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar" to'g'risidagi qonun, 1998;
5. Yovqochev Sh.A "Siyosat va din" o'quv qo'llanmasi;
6. Narbekov A.V "Dinshunoslik asoslari", Toshkent-2007
7. Mo'minov A, Yo'ldoshxo'jayev H "Dinshunoslik", Toshkent-2003
8. Yovqochev Sh.A. Siyosat va din. o'quv qo'llanma.
9. Narbekov A.V "Dinshunoslik asoslari", Toshkent-2007.
10. "Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi", 3-moddasining 1-bandi.
11. Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi 2-moddasi
12. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar" to'g'risidagi qonun 1-modda
13. www.iiv.uz sayti
14. www.president.uz sayti